



YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING AHAMIYATI

Ahmedova Pokiza Rustamovna¹

Turkiy tillar fakulteti talabalari.

Qo'chqarova Shaxnoza Anvarbek qizi²

Turkiy tillar fakulteti talabalari.

Maxambetova Ilmira Murat qizi³

Turkiy tillar fakulteti talabalari.

¹⁻²⁻³Ajiniyoz nimidagi Nukius Davlat Pedagogika Instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7031333>

ARTICLE INFO

Received: 22nd August 2022

Accepted: 25rd August 2022

Online: 29th August 2022

KEY WORDS

Yangi O'zbekiston,
Harakatlar Strategiyasi,
Yoshlar ittifoqi, besh
tashabbus, yosh kitobxon,
yashil makon, islohot,
talabaga madad loyihasi.

Yurtboshimiz tomonidan O'zbekistonni yanada rivojlantirish va uning salohiyatini oshirishga e'tibor qaratilib kelinmoqda, bu borada yurtimiz yoshlariga yanada sifatli ta'lim berish, ularga dunyo hamjamiyatida ma'qul topilib, ta'lim standartlariga javob beradigan texnika va innovatsion dasturlarning barchasi yurtimizga tatbiq etilmoqda. Yoshlarga yanada qulaylik va kichik xususiy biznesni rivojlantirish, qolaversa, ta'lim yo'nalishlarida o'qish qamrovini kengaytirish borasida ham atroflicha ishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida savol tug'iladi, xo'sh, bu kabi ishlar va yoshlarga berilayotgan bu kabi e'tiborga sabab nima? O'z o'rnida shuni aytishim mumkinki, o'z ertasi va kelajagini o'ylayotgan mustaqil yurtimizda yurtboshilarimiz biz yoshlarning hech kimdan kam bo'lmay, kelajakda dunyo mamlakatlari orasida O'zbekiston nufuzini yanada oshirishimiz uchun barcha imkoniyatlar safarbar qilingan. Bu borada

ABSTRACT

Ushbu maqolada yurtimizda olib borilyotgan yoshlarga oid davlat siyosatining ahamiyati va qolaversa, jamiyatimizda tizimli ravishda olib borilyotgan ishlarning nazariy va amaliy tatbiqi xususida fikr yuritilgan.

biz yoshlar uchun mamlakatimizda tizimli islohotlar: „harakatlar strategiyasi“, „besh tashabbus“, „talabaga madad“, „bilim uchun yuz million“, „yosh kitobxon“ va boshqalarni keltirib o'tish joizdir.

Biz yoshlarni kelajagimizning bunyodkori sifatida tarbiyalash va bu borada barcha sharoitlarning yaratilgan ekanligi kishini behad quvontiradi, oddiygina qilib, yurtimiz qatlamining asosini tashkil etuvchi talabalarni olaylik. Bugun yurtimizda talaba- yoshlar uchun turli imkoniyatlar mavjud, bilasizmi, oldinlari onda-sonda biror bir puldorroq oilaning farzandi oldiniga o'z yurtimizda keyin esa chet elga o'qishga ketganini eshitib qolsak, rosti havas va hayratlar bilan o'yg'a tolib qolar edik, bugun esa bunday holat tabiiylik darajasiga erishdi, deyish mumkin. Rostini aytganda, talaba yoshlarga kelajak egalari sifatida qarash va ularni mamlakatimiz tomonidan qo'llab quvvatlanayotganidan behad xursandman,



negaki ta'lim tizimida joriy etilgan oliy ta'lim muassasalarining ichki stipendiyalari, davlat stipendiyalari, hatto talaba yoshlar turar joyining oylik to'lovlarining davlat tomonidan to'lab berilishi ham O'zbekistonda yoshlarga har qachongidan ham ko'proq e'tibor qaratilayotganidan misoldir. Bu kabi islohotlar qamrovi va e'tibor ostida ulg'aygan har bir yosh O'zbekiston kelajagi uchun munosib avlod bo'lib yetishishi va raqobatbardosh kadr sifatida O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi o'rnini yanda orttirishiga ishonaman, albatta, men ham ular safida bo'lishni istayman.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati bilan birgalikda kishilarning tinch va totuv yashashini ta'minlashda ustuvor vazifalarni bajaradigan „Besh tashabbus“ va boshqalar kabi bugungi kunda hayotimizning asosini tashkil qilishda ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy hayotni rivojlantirishda turli amaliy va nazariy ishlarning amalga oshirilayotgani kishini quvontiradi. O'z o'rnida aytish mumkinki, bugun har jabhada inson va uning manfaatlarini himoya qilish ustuvor vazifadir deyish, albatta madsadga muvofiqdir.

Kundalik turmush sharoitimizdan kelib chiqib aytishim mumkinki, qishloq va tog'li hududlarda yashab istiqomat qilib kelayotgan aholining ijtimoiy ahvoli har qachongidan ham yaxshi ekanligini aytish mumkin.

Bunday mustaqil va ozod vatanda istiqomat qilar ekanmiz, kishilarning hayotiy dunyoqarashini oshirish hamda davr, qolaversa, mamlakatdan rozilik ruhida yashash hissining oshib borishi bu

mamlakatimizdagi olib borilayotgan ishlarning yorqin namunasidir deyish mumkin.

Kishilarning davr va jamiyatga munosabatini bildirishi va teran tahliliy jarayonlarni amalga oshirishda ochiqlik va oshkoralik tizimi ham mavjud bo'lib, muntazam ravishda kishilarning fikrini o'rganish borasida yurtimizning har bir maskanida xalq qabulxonalarining mavjud ekanligi ham bu kabi fikrlarimizning yorqin dalili deyish mumkin.

Keling, yaxshisi, oddiylik nuqtai nazaridan kelib chiqib, xulosa qilib ko'rishga harakat qilamiz. Deylik, yigirma ikki yoshni qarshilagan navqiron yigit, u kelajak hayotga qadam qo'yishi, oila qurishi va shaxsiy karyerasini amalga oshirishi lozim. Aytish mumkinki, u oliy ta'limda ta'lim olmagan bo'lishi mumkin. Xo'sh, u shu holicha qolib ketaveradimi, agar shunday deb tahlil qilsak, bu inson O'zbekistonning kelajagiga qay tarzda hissa qo'sha olar edi, deguvchilar ham topilishi tabiiy albatta. Nazariy jihatdan o'ylab qaraganda, to'g'ri bo'lishi mumkin, biroq bizning yurtimizda bu holatga quyidagicha qarash mumkin, shahar, tuman yoki viloyatlar miqyosida tez muddatlar ichida mehnat yarmarkalari tashkil etilib, uyushmagan yoshlarni jalb etish va ularning bandligini ta'minlash, mavsumiy yoki doimiy ish bilan ta'minlash va ushbu ishlar davomiyligida namunali kadrlarni mamlakat miqyosida sirtqi oliy o'quv yurtlarida qayta malaka oshirib o'quv ishlarini amalga oshirishlari yoki bo'lmasa oddiy bir jamiyat uchun muhim vazifalarni bajarmaydigan kishi kundalik turmush sharoitida bemor bo'lib qolsa, u hamjamiyatdan uzilib qoladi degani emas, yurtimizda shunday shart - sharoitlar yaratilganki, har bir mahalla va



ko'chalar nazoratini amalda tutuvchi hamshiralik(patranaj) xizmatlari ham yo'lga qo'yilgan ekanligi, inson va uning manfaatlari ulug'lanib kelinayotganligidan yaqqol misoldir. Nega bu kabi sodda fikrlar yuzasidan mushohadalar yuritdi ekan, deb o'ylamang, kitobiy va fayla sufona ta'riflardan qochgan holda shaxsiy dunyoqarash va tajribalarimdan kelib chiqib shuni aytmoqchimanki, yurtimizda biz yoshlarga yaratilgan shart va sharoitlarni oddiy tarzda bayon qilishga harakat qildim. Zero, bejirim so'zlar ila bayon etilgan iboralardan ko'ra sodda til bilan bayon etishni afzal bildim.

Mustaqil yurtda biz talaba yoshlarga yaratilgan shart sharoitlar va ularning

amaliy jihatidan amalga oshirilayotgan turli xil tashviqot ishlari, yoshlarga oid davlat siyosati har qachongidan ham muhim vazifa kasb etmoqda. Sezganingizdek, kelajak poydevorlari bo'lgan biz yoshlarni qo'llab - quvvatlash ularga har tomonlama ko'mak berish ertamiz farovonligi yo'lida olib borilayotgan sa'y - harakatlar deyish mumkin. Ushbu matnni o'qib turgan qadrli yurtdoshim - har tomonlama ko'mak va qo'llab quvvatlashlar asosida farovon va beminnat bilim olib, nurafshon bu yurtdas istiqomat qilar ekanmiz, O'zbekiston ravnaqi yo'lida xizmat qilish siz- u biz uchun ham qarz ham farzdir.

References:

1. Mirziyoyev, SHavkat
2. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: „O'zbekiston“ nashryoti, 2022 / ISBN 978-9943-9751-7-4
3. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020 – yil 5- oktabrdagi „Raqamli O'zbekiston – 2030“ strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PF – 6079 – sonli farmoni.
4. Karimov Islom. „Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch“. „Ma'naviyat nashryoti“ 2008. ISBN 978 – 9943 – 045 -075 - 5
5. 2017 – 2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi.